
"Oq yo'l senga, bitiruvchi!"

Farg'ona viloyati Rishton tumanining so'lim istirohat bog'ida bugun 2021-yil 24-iyun kuni muddatidan oldin talaba bo'lish baxtiga muyassar bo'lgan o'quvchilar va 2700 nafar 11-sinf bitiruvchilari orasidan qalbida shijoat jo'sh urgan, yuragida ajoyib hayajon sezilib turgan "oltin" va "kumush" medali sohiblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda bitiruvchi yoshlarni taqdirlash uchun tumanimiz hokimi S. Soliyev VA barcha sektor rahbarlari ishtirok etdilar. Xalqaro KIUF olimpiadasida 12800\$ grant sohibi bo'lgan 1-IDUM o'quvchisi A. Mirzaliyev hamda 6400\$ sohibi N.Umarovlarga tumanimiz hokimi sertifikatni tantanali ravishda topshirdilar. Mazkur o'quv yilida "oltin" VA "kumush" medal sohibi deb topilgan o'zining namunali xulqi VA a'lo baholarga o'qishi bilan tengdoshlariga namuna bo'lgan bitiruvchilarga barcha sektor rahbarlari, tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri I.S.Mirzarahimova va tumanning ziyoli insonlari ulkan ishonch bildirdilar. O'ylaymizki, bugungi kun bitiruvchilari o'z oldilariga katta maqsadlar qo'yib yurt koriga yaraydigan farzand bo'lib yetishadilar. Oq yo'l, ulkan zafarlar bilan birgalikda yuqori marralarni egallashlarini tilab qolamiz.

2021-06-25 22:16:59